

**AXBOROT OLISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY
ASOSLARI: AXBOROT OLISHDA YUZAGA KELADIGAN MUOMMOLAR
VA QONUN BUZILISH HOLATLARI**

Otabek Abdumalikov

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Ommaviy axborot vositalari

huquqi yo'nalishi talabasi

oabdumalikov892@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot olish huquqi masalalari va uni olishda yuzaga keladigan tabiiy va mexanizmlashtirilgan to'siqlar atroflicha tahlil etildi. Xalqaro va yurtimiz hududida yuz berayotgan axborot oqimi kengayuvi unda axborot turi va manbasining ortishi, uni tartibga solishda va fuqarolarga to'g'ri axborot yetkazib berish chora-tadbirlari muhokama etildi. Maqolada, mahalliy va xalqaro olimlarning fikri orqali axborot olish muammolarining sabablari aniqlandi, yurtimizning axborot erkinligi borasidagi joriy holati aniq raqamlarda ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: Axborot olish erkinligi, noqonuniy kontent, dezinformatsiya, feyk yangiliklar, taqiqlangan axborotlar, Filter Bubble (Filtr qopqog'i), xalqaro qonunchilik, milliy strategiya.

Abstract: This article thoroughly analyzes the issues of the right to access information and the natural and mechanized barriers that arise in obtaining it. The expansion of information flow occurring both internationally and within our country, along with the increase in the types and sources of information, is discussed, as well as measures for regulating it and delivering accurate information to citizens. The article identifies the causes of information access problems through the views of local and international scholars, and presents the current state of information freedom in our country with specific figures.

Keywords: Freedom of information access, illegal content, disinformation, fake news, prohibited information, Filter Bubble, international legislation, national strategy.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются вопросы права на доступ к информации и естественные и механизированные барьеры, возникающие при ее получении. Обсуждается расширение информационных потоков как на международном уровне, так и в нашей стране, увеличение видов и источников информации, а также меры по ее регулированию и предоставлению гражданам достоверной информации. В статье определены причины проблем доступа к информации через мнения местных и международных ученых, а также

представлено текущее состояние свободы информации в нашей стране с конкретными цифрами.

Ключевые слова: Свобода доступа к информации, незаконный контент, дезинформация, фейковые новости, запрещенная информация, фильтровый пузырь, международное законодательство, национальная стратегия.

KIRISH

Axborot olishda va undan foydalanishda inson huquqlarining ta'minlanishi borasida ko'plab qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Unda so'z va ifoda erkinligi bilan bir qatorda axborot olish huquqining alohida e'tirof etilgani, u fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy huquq va erkinligi sifatida huquqiy baho berilgani axborot olish borasida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun qilingan asosiy qadamlar desak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida avvalgi 29-moddaning tahriri sifatida qayta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgandan so'ng, yangi tahrirdagi 2023-yilda e'lon qilingan Konstitutsiyaning 33-moddasida, axborot olish huquqi daxlsiz huquq bo'lib, faqatgina qonunga muvofiq tegishli tartibda bu huquqni cheklash mumkinligi to'g'risida to'liq ta'kidlangan[1](Konstitutsiyasi – 08.12.1992 // URL: <https://lex.uz/docs/-20596>). Axborotlashtirish to'g'risidagi qonunda esa bu huquq yanada kengroq tavsiflangan. Unga ko'ra, axborot resurslaridan ham erkin foydalanish huquqiga ega ekani va bu bo'yicha toifalarga ajratilganini ko'rishimiz mumkin. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunda esa, ommaviy axborot vositalari erkin ekani, unga ko'ra hech qanday kuch uning erkin faoliyatini cheklamasligi aytilgan bo'lib, 7-moddada esa, senzura yo'l qo'yilmaydi deya ta'kidlangan[2] (OAV to'g'risidagi qonun // URL: <https://lex.uz/docs/-1106870>). Tayyorlangan axborot yoki materialni nashrdan olib qolish, efirga berilmasligini talab qilishga hech kimning haqqi yo'qligi aytilgan. Faqat bunda shaxsga doir ma'lumotlarga, maxfiy va sir saqlanishi shart bo'lgan axborot, axborotlashtirish to'g'risidagi qonunning 12¹-moddasida nazarda tutilgan tartibdagi materiallar bo'lmasligi, u fuqarolar va davlat uchun zarar keltiruvchi xarakter va kuchga ega bo'lmasligi lozim. Ushbu holat yuzasidan, axborot olish va tarqatishni axborotlashtirish to'g'risidagi qonundan tashqari, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun ham tartibga soladi. Konstitutsiyada belgilangan ushbu sohaga oid qismi "Axborot olish kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida ham qat'iy belgilangan.

Olib borilayotgan davlat siyosatiga, kiritilayotgan qonun o'zgartirishlariga, prezident qaror va farmonlarining ayni shu sohada qat'iy ekaniga qaramasdan, axborot olishda konstitutsion huquqlarning buzilishi, so'z erkinligi reytingida O'zbekiston o'rnining sezilarli pasayishga uchrangani, axborotni erkin olish indeksiga ko'ra ham juda ortda qolayotganimiz, Ommaviy axborot vositalari erkinligining jahon miqyosida

juda og‘ir deya baholanayotgani, ushbu sohada juda ko‘p ishlar amalga oshirilishi zarur ekani haqida xabar bermoqda. Ba’zida qilinayotgan o‘zgarishlar ham aks ta’sir etishi, vaziyatni barqarorlashishiga xizmat qilmasligi mumkin. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

2022-yilning 2-iyun sanasida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi [3] (<https://lex.uz/docs/-4838762>) farmoni mamlakatda mazkur masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganidan dalolat bergan edi (ushbu qonun 2024-yildan buyon o‘z kuchini yo‘qotgan). Negaki, axborot olish masalasida jahondagi o‘rnimizni yuksaltirish, bu davlat boshqaruvining, fuqarolik jamiyatida demokratik yondashuvning barqaror ekanini va ushbu mamlakat rivojlanish tomon ildam qadam tashlayotganidan darak beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda, axborot olish erkinligi borasida O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik, olib borilayotgan islohotlar hamda axborot olish erkinligiga daxl etuvchi holatlarning himoyasini o‘rganishga qaratilgan yondashuvlar qo‘llaniladi. Tadqiqot sifatida huquqiy tahlil (legal analysis usulidan foydalanildi, bu milliy va xalqaro huquq normalari, Ushbu huquqiy tahlil davomida yoritilgan ishning natijasini ko‘rsatish uchun aniq raqamlar va ko‘rsatgichlar bilan dalillash (statistic) uslubidan ham ma’lum darajada foydalanish tanlandi. Asosiy e’tibor, 2023-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri) ga, 2002-yilgi “Axborot erkinligi prinsiplari kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Axborot olish kafolatlari va erkilingi to‘g‘risida”gi qonunlarga, 1948-yilgi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ga, “O‘zbekiston - 2030 va Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga qaratildi. Shuningdek, tahlil uchun ikkilamchi manbalar - ilmiy maqolalar, ekspert fikrlari, statistik ma’lumotlardan ham foydalanildi. Amerikalik huquqshunos, yozuvchi va jurnalistlarning fikrlari o‘rganildi, Filter qopqog‘i (Filter Bubble) nomli tushuncha alohida tahlil qilindi. Axborot olishni cheklovchi yoki uni olishda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilish uslubi orqali atroflicha tadqiq etildi.

NATIJALAR

Axborot olishdagi muammolarni dissertant tahlil qilarkan, undan avval O‘zbekistonda axborot olish borasida, ochiq axborot indeksi, so‘z erkinligi indeksi, axborot olish erkinligi kabi bir qator me’zonlar bo‘yicha O‘zbekistonning jahon miqyosida tutgan o‘rni haqida o‘rganish muhim masala deb hisoblaydi. Ushbu reytinglarni yillar kesimida, o‘rish yoki pasayish kuzatilgani haqidagi aniq ma’lumotga ega bo‘lish, davlatlar orasidagi qatorini baholashning o‘zi ham, axborot olish

huquqining nechog'lik ta'minlangani, yoki davlat olib borgan islohotlarning natijasi sifatida qaralishi mumkin.

2015-yilda so'z erkinligi indeksiga qaraydigan bo'lsak, unga ko'ra yurtimiz Markaziy Osiyoda yetakchi mamlakat hisoblanib, jahon miqyosida 50-pog'onani band etgan. Ushbu holat 180 mamlakat ichida hisoblanganini inobatga olgan holda yaxshi ko'rsatgich deb baholasa bo'ladi. Biroq, o'tgan yillar davomida, ayni islohotlar olib borilishining yuqori cho'qqisi paytida, davlat siyosati va davlat rahbari bor e'tiborini shu soha rivojida 2022-yilda qaror va farmonlar imzolashiga qaramasdan, 2023-yilga kelganda 180 mamlakat orasida 142-pog'onaga qadar pasayish kuzatilgan, ushbu yillar oralig'ida Qozog'iston mamlakati Markaziy Osiyoda so'z erkinligi bo'yicha yetakchi mamlakatga aylangan. Ushbu ko'rsatgich, eng yangilangan statistik ma'lumotga ko'ra yana ikki pog'ona pastlaganimizni ko'rsatmoqda. Aslida Markaziy Osiyoda ikkinchi bo'lib qolganimiz buyerda asosiy masala emas, buyerda bizning tutgan o'rnimiz juda pastligi, O'zbekistonda inson qadri, uning shaxsiy va daxlsiz erkinliklari poymol etilayotgan mamlakat sifatida qaralib, davlat imidjini tushirishi aniq. Ayni damda esa, O'zbekiston so'z erkinligi bo'yicha Qirg'iziston va Qozog'istondan keyin Markaziy Osiyoda uchinchi, jahon miqyosida 144-pog'onani band qilgan holda shu o'rinni egallagan[4] (KUN.UZ // <https://kun.uz/en/news/2024/05/03/uzbekistan-drops-11-lines-in-press-freedom-index>). Bu, yurtimizda so'z erkinligiga qaratilgan e'tibor harchand biz uchun ulkan islohot sifatida ko'rinmasin, qilinishi kerak bo'lgan ishlar va ko'rilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar talaygina ekanini ko'rsatmoqda. Chunki qolgan jamiyatlar ham to'xtab qolgani yo'q. Har bir mamlakat o'z fuqarolari va yurtida bo'lib turgan insonlar uchun har qanday holatda ham, axborot olish erkinligi, so'z erkinligi kabi fundamental huquqlar kafolati ustida bosh qotirayotgani va ularda ham keskin o'sishlar kuzatilayotganidan darak beradi. Yana bir statistik ma'lumotga qaraydigan bo'lsak, "Chegara bilmas muxbirlar" tomonidan jahon miqyosidagi OAV lardagi erkinlik, axborot tarqatishda senzura yo'l qo'yilishi yoxud jurnalistlarning erkin ifoda erkinligini bo'g'ilishi yuzasidan hisoblab chiqiladigan "World Press Freedom Index – 2025" natijalariga ko'ra, O'zbekiston shu jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarining ahvoli og'ir ekani ta'kidlangan.

Ushbu reytingda ham yurtimiz to'q qizil, ya'ni juda jiddiy vaziyatda ekani ta'kidlangan. Axborot tarqatish, OAV erkinligining juda jiddiy vaziyatda ekani, haqiqatan ham, so'z erkinligi, erkin axborot olish huquqi pastlashining asosiy sababchi omilidir.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda mavjud normativ huquqiy hujjatlar orqali ushbu muammolarga huquqiy yondashadigan bo'lsak, dezinformatsiya (disinformation/false information)ga oid hech qanday ta'rif yoki uni noqonuniy axborot sifatida qabul qiluvchi huquqiy hujjat mavjud emas. Faqatgina,

“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunning 12¹-moddasida hamda “Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 15-moddasida [5] (Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida // URL: <https://lex.uz/docs/-9540>), jurnalist javobgarligi belgilangan, boshqasida esa axborot resursi egasining yo‘l qo‘ymasligi kerak bo‘lgan majburiyatlar ta’kidlangan. Unga ko‘ra jurnalist ham axborot tarqatishga ega bo‘lgan axborot resursi egasi axborotning haqqoniy, to‘g‘ri va ishonchli bo‘lishiga javobgardir. Biroq, bu axborotni to‘liq tartibga solish imkonini berishi juda qiyin. Buning asosiy sababi, axborotni olish, tarqatish va foydalanish operatsiyalarini asosan insonlar bajaradi. Demak, axborotdan foydalanayotgan, uni boshqa insonga ham axborot olishini ta’minlash maqsadida uzatayotgan axborot iste’molchisi, dini, millati, irqi va kelib chiqishidan qat’iy nazar, axborotning to‘g‘ri va ishonchli ekaniga ishonch hosil qilishlari lozim. Bu o‘z navbatida axborot madaniyatini ham shakllantirgan bo‘lar edi. Qonunchilikda, na dezinformatsiyaga, na insonlarga nisbatan yuklatilgan majburiyat mavjuddir. Agar dezinformatsiyalar qonundan tartibga solinmas ekan, axborot olishdagi konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar vujudga kelayotgan jarayonda, tabiiyki, qonun buzilish holati vujudga keladi. Davlat, axborot oqimini, uning tartibli va to‘g‘ri harakatini nazorat qila olmas ekan, uning jahon va mahalliy miqyosdagi obro‘sigi, uning imidjiga putur yetishi mumkin. Bu borada, “Russia Today” telekanali bosh muharriri bo‘lib faoliyat yuritgan Margarita Simonyanning shunday fikri mavjud: “Hech bir buyuk davlat axborot nazoratisiz yashay olmaydi” degan[6] (M.Otamurodova // “Jahon medialandshaftida so‘z erkinligining yangi tendensiyalari”). Ammo u bunda senzurani nazarda tutgani, fikrning noxolis ekanini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsada, ushbu ta’rifni biz, noto‘g‘ri axborot, soxta xabarlar va noto‘g‘ri talqin etilgan ma’lumotlarga nisbatan ishlatadigan bo‘lsak, bu fikr o‘rinli deb qabul qilinadi deb hisoblaydi dissertant. Negaki, agar yuqoridagi, dezinformatsiya, feyk xabarlar va noto‘g‘ri talqin etilayotgan yangiliklarni oldini olish orqali xalqaro va hukumat tizimida belgilangan tartibda, fuqarolarning axborot olishdagi konstitutsion-huquqiy munosabatlardagi huquqi ta’minlanishiga erishiladi. Ikkinchi muommoga batafsil to‘xtaladigan bo‘lsak, fishing va kiberjinoyat hodisasi, 2019-yildan aynan Covid-19 davrida, internet ma’lumotlarga qaramlik kuchaygan davrda yuzaga keldi. Hozirda, xalqaro GDPR tashkilotida, shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuning 3-moddasi asosiy tushunchalar qismida, aynan kiberhujum, kiberjinoyat hodisasi, fishing haqida huquqiy ta’riflar keltirilgan[7] (Kiberxavfsizlik to‘g‘risida // URL: <https://lex.uz/docs/-5960604>) Har soniyada minglab fishing hodisasi sodir etilayotgan bo‘lib, bor yo‘g‘i har 36 soniyada bir dona kiberjinoyat hodisasini yuzaga keltirish uchun yetarli vaqt deb hisoblanmoqda, mavjud so‘nggi statistik ma’lumotlarga ko‘ra[8] (D.Miller // adabiyotlar ro‘yxatiga qaralsin). Axborot olish huquqining buzilishiga ushbu omil ham sabab bo‘lishi tabiiy. Chunki insonlarga pravakatsion ruhdagi, yolg‘on va dalarga yo‘g‘rilgan ma’lumot, ularning

aqliy hamda ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi ma'lumotlarni ularning Telegram, Facebook, Instagram sahifalariga yuborishgandan so'ng, sarosimaga tushgan insonlar, ushbu ma'lumotni beixtiyor ochishga majbur bo'ladi. Bunda, yuborilgan axborot maxsus dasturlar orqali ishlab chiqilgan bo'lib, insonlarning shaxsiy ma'lumotlari, telefon apparatlarida qayd etilgan kredit karta yoki hisob raqami, sir tutilishi shart bo'lgan hisob raqamining paroli va kodlarini shaxsning ruhsatisiz, aldov yo'li bilan olish holatlari yuzaga kelmoqda. Axborot uzatishda va uni olishdagi etik qoidalarini oson buzilishi, vayronkor g'oyalar asosida ishlab chiqilayotgan axborotlarning sonini keskin oshishiga zamin yaratmoqda. Aslida, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra, har qanday shaxsga doir ma'lumotlar - maxfiy ma'lumotlar sirasiga kiritilgan bo'lib, uning buzilishi "Axborotlashtirish", "Kiberxavfsizlik" va "Davlat siri" to'g'risidagi qonunning tegishli moddalarini buzilishiga olib keladi [9] (Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun // link adabiyotlar ro'yxatida).

XULOSA

Axborot olish huquqi, demokratik jamiyatlarning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, fuqarolarga davlat va uning organlari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatlar haqida ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Bu huquq, shuningdek, jamiyatda shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyani oldini olish va fuqarolarni o'z huquqlari haqida xabardor qilishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, axborot olish huquqining buzilishi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi, bu esa nafaqat fuqarolarning huquqlarini cheklaydi, balki davlatning ishonchliligini ham pasaytiradi.

Birinchidan, axborot olish huquqining buzilishi fuqarolar orasida ishonchsizlikni kuchaytiradi. Agar davlat organlari axborotni yashirish yoki to'liq bermasalar, fuqarolar o'zlarini aldanayotgan hissini his qiladilar. Bu esa fuqarolar va hukumat o'rtasidagi aloqa va ishonchni zaiflashtiradi. Natijada, jamiyatda ijtimoiy beqarorlik va norozilik kuchayishi tabiiy.

Ikkinchidan, axborot olish huquqining cheklanishi korrupsiya va suiiste'mol holatlarining ko'payishiga olib keladi. Axborot ochiqligi, davlat boshqaruvi jarayonlarida nazoratni ta'minlaydi. Agar fuqarolar davlat organlarining faoliyatini kuzata olmasalar, bu korrupsiya uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, axborot olish huquqining buzilishi natijasida davlat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati kamayadi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, axborot olish huquqining cheklanishi ta'lim va ilmiy tadqiqot sohalarida ham muammolarni keltirib chiqaradi. Ochiq axborot manbalari ta'lim jarayonida o'quvchilarga va talabalar uchun zarur bo'lgan bilimlarni olish imkonini beradi. Axborotning cheklanishi esa ilm-fan sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Bu holat, oxir-oqibatda, mamlakatning global raqobatbardoshligini pasaytiradi.

To‘rtinchidan, axborot olish huquqi buzilganda inson huquqlari va erkinliklariga tahdid solinadi. Ochiq axborot muhitida fuqarolar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Biroq, agar davlat axborotni yashirishga yoki senzura qilishga intilsa, bu fuqarolarning fikr bildirish erkinligini cheklaydi. Natijada, jamiyatda muvozanat va adolat yo‘qoladi.

Shuningdek, axborot olish huquqi buzilganda, sud tizimiga ishonch ham pasayadi. Agar fuqarolar sud jarayonlarida ochiq axborotga ega bo‘lmasalar, sud qarorlariga nisbatan norozilik paydo bo‘lishi mumkin. Bu esa sud tizimining obro‘cini pasaytiradi va adolatli sudlov tamoyillarini buzadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot olish huquqining buzilishi jamiyatda ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar nafaqat fuqarolarning huquqlarini cheklaydi, balki davlatning ishonchligini ham pasaytiradi. Shu sababli, axborot olish huquqini himoya qilish va rivojlantirish har bir jamiyat uchun muhim vazifa hisoblanadi. Ochiq va shaffof axborot tizimi yaratish orqali biz demokratik qadriyatlarni mustahkamlashimiz va ijtimoiy adolatni ta‘minlashimiz mumkin degan xulosaga kelgan dissertant. Buning uchun barcha manfaatdor tomonlar – davlat organlari, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar – birgalikda ishlashlari zarur. Faqat shunday qilibgina biz axborot olish huquqini to‘g‘ri amalga oshirishimiz va uning buzilishiga yo‘l qo‘ymasligimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 08.12.1992 // URL: <https://lex.uz/docs/-20596>
2. 2007-yil 15-iyunda qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-1106870>
3. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi qonun” – O‘RQ-764-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-5960604>
4. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun” – O‘RQ-547-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-4396419>
5. <https://lex.uz/docs/-4838762>
6. <https://kun.uz/en/news/2024/05/03/uzbekistan-drops-11-lines-in-press-freedom-index>
7. “Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.// URL: <https://lex.uz/docs/-9540>
8. M.Otamurodova. “Jahon medialandshaftida so‘z erkinligining yangi tendensiyalari”
9. D.Miller – statistics/sybecrime: URL: <https://onlinecloudsecurity.com/how-often-does-cybercrime-happen/>
10. “Davlat siri to‘g‘risidagi qonun”. 27.12.2024 yildagi O‘RQ-1016-son: <http://lex.uz//ru/docs/-7282637>.